



**BOLALARDA TABIAT VA BIZ TUSHUNCHASINI UYG'OTISHNI TO'G'RI  
YO'LGA QO'YISH**

**Matnazarova Nodira**

**Ganjayeva Ruzika**

*Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 32- sonli maktab o'qituvchilari*

**To'rayeva Madinabonu**

**Ro'zimboyev Adham**

*Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 32- sonli maktab o'quvchilari*

**Annotatsiya:** *Tabiiy fan darslarini o'rganish orqali o'quvchilarda "tabiat va biz" munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish va ekologik madaniyatni shakllantirishdagi muhim ahamiyatini yoritib berish.*

**Kalit so'zlar:** *Geografiya, Tabiatshunoslik, Tabiiy fan ,tabiat, kompetensiyalar, TIMMS, PIRLS, QR-kod, Ekologik madaniyat.*

Geografiya fani dunyodagi barcha fanlarning eng ulug'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Geografiya fanining shakllanganiga ham II ming yilcha vaqt bo'ldi. Shu muddat davomida geografiya fani yanada sayqallanib ,ravnaq topib bordi. Geografiya fani juda ham qiziq va o'ziga hammani ohangrabodek jalb qiluvchi sehrli fan bo'lib hisoblanadi Darhaqiqat, butun yer yuzida geografiyaga qiziqmaydigan insonni topib bo'lmasa kerak?!

Buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Musa al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad al-Farg'oniy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi o'z zamonasining yetuk allomalari geografiya sohasiga oid ko'plab izlanishlar olib borganlar, geografik ma'lumotlar to'plaganlar va geografiya fani rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Geografiya fanining jadallik bilan rivojlanib bugungi kundagi ko'rinishga kelishiga olib kelgan asosiy omil -bu insoniyatning tabiatga bo'lgan ulkan qiziqishidir.

Tabiat-bizni o'rab turgan borliq, olamdir. Inson o'z umri davomida tabiat bilan uzviy aloqadorlikda hayot kechiradi. O'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan hamma narsani tabiatdan oladi. Bu harakatlar bilan inson tabiat qonunlariga aralashadi, uni o'zgartiradi. Bilasizmi yer yuzidagi bir dona daraxt masalan, terak har kuni 45 kg kislorod ishlab chiqaradi. Bu toza havo esa bir sutkada 50-60 kishiga yetishi mumkin. Bir dona terak har soatda avtomobillar chiqargan 2,5 metr kub zararli gazlarni yutadi va 50 000 metr kub havoni tozalab ,atmosferani kislorodga boyitadi. Sayyoramizda qancha o'rmonlar maydoni kengaytirilsa bu atmosferani musaffo bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasp etadi. Hozirgi paytda jahon yer fondining umumiylajmi 13,4 milliard hektarni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichni 30% i ya'ni 4 milliard hektari o'rmonlar hissasiga to'g'ri keladi. Ammo insoniyatni

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



tabiatga nooqilona munosabatda bo'lishi natijasida keyingi ikki asr davomida sayyoramiz o'rmonlari maydoni 2 barobar kamaydi.Sayyoramiz o'rmonlari har yili o'rtacha 25 million qisqarib bormoqda.Butun yer sayyorasida o'simliklarni og'irligi 2400,2 milliard tonnaga teng bo'lса,bu ko'rsatkichni 50 % i yoki 1200,1 milliard tonnasi tropik o'rmonlar hissasiga to'g'ri keladi.Lotin Amerikasi va Osiyoni keng bargli o'rmon maydonlari faqat XX asrning so'ngi 30-35 yilda 40 % ga qisqarib ketdi.

Tabiatda hamma narsa bir-biriga uzviy bog'liq.Buni ushbu raqamlarda ham ko'rish mumkin:XIX asrgacha har 55 yilda 1 tur hayvon yo'qolgan bo'lса, hozirda har yili 1 tur hayvon yo'qolmoqda.Shu kungacha bevosita inson tomonidan yo'q qilib yuborilgan sutemizuvchi hayvon va qushlar 256 turni tashkil etadi.Ushbu raqamlarni endilikda salmog'i ortmasligi uchun yosh avlodni atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tuyg'usini shakllantirmoq lozim.Bu borada esa Tabiiy fan darsligining ahamiyati juda katta.Darslikni o'qish orqali o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

1.Tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatish,aniqlash,tushunish va tushuntirish kompetensiyasi,

2.Geografik obyektlar ,joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi,

3.Geografik xaritalarni o'qish,tushunish va amaliyotda foydalanish kompetensiyasi,

4.Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

1-4 sinflarda o'quvchilar ayniqsa atrof-muhitga o'zgacha qiziqish bilan nazar soladilar.Tabiatdagi har bir hodisani ro'y berish jarayoni ular uchun go'yo bir mo'jizadek tuyuladi.Ular aynan shu yoshda dunyoni birdaniga anglab yetishga oshiqadilar.Tabiiy fan darsligi ularga tabiat sirlarini anglab yetishda yaqindan yordam beradi.Qolaversa darslikda zikr etilgan toponimlar (gidronimlar, oykonimlar, oronimlar) o'quvchilarga yuqori sinflarda geografiya saboqlarini o'zlashtirishda yaqindan yordam beradi. Eng muhim jihatlaridan biri darslik orqali o'quvchilar tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasini shakllanishidir.Tabiatga bo'lgan munosabat yurtimizda tabiiy fanlarga bo'lgan e'tiborni yanada yuksaltirmoqda.Nafaqat yurtimizda balki butun dunyoda yoshlarni tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.**TIMSS** (Trends in Mathematics and Science Studu)-boshlang'ich ta'limning 4- sınıf o'quvchilari va 8-sinf o'quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlar bilimlarining darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashuvchi dastur bo'lib hisoblanadi.

**PIRLS** - (inglizcha –Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot ) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lif tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Tabiiy fan darslarni asosini ham aynan mavzuni yorituvchi matnlar tashkil qiladi .Qolaversa ,mavzuni boyitish uchun rasmlar ,xaritalar ham keng joy olgan.Hozirda axborot texnologiyalari taraqqiy etayotgan bir davrda darsliklar qayta nashrdan chiqdi, yangi fanlar joriy qilindi va yangi nashrda ko'plab yangiliklar joriy etilgan .Xususan yangi darsliklarda QR -kod belgilar joylashtirilgan. QR-kod – inglizcha «**Quick Response**» so'zidan olingan bo'lib, Quick – tez, Response – javob, ya'ni «**tezkor javob**» ma'nosini bildiradi. Bitta QR-kod o'rtacha 7089 ta raqam, 4296 ta raqam harf, ikkilik sanoq sistemasiga 2953 bayt yoki 1817 ta iyerogliflarni o'z ichiga olishi mumkin.QR-kodlar orqali turli qiziqarli (xarita, diagramma, infografika, audio, video, matn ko'rinishidagi) ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.Bunday zamonaviy infografikaga boy bo`lgan kitob orqali o'quvchilar tabiatga yanada qiziqish bildiradilar va mehr qo'yadilar.Darslikda tabiatni muhofaza qilish ,qo'riqxonalar, buyurtma parvarishxonalar , "Qizil kitob" haqida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgani har bir o'quvchini atrof-muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga undaydi. Tabiiy fan darsliklarii 5-sinf geografiya darsligi negizidagi materiallar bilan boyitilgan .Bu esa yuqori sinfdan 5-sinfda geografiya darsligini yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi. Darslikning vatanimiz tabiatiga bag'ishlanganligi esa o'quvchilar qalbida yashab turgan joyga muhabbat tuyg'usini yanada orttiradi.Bu o'z navbatida kelajakda yoshlarda ekologik madaniyatni shakllanishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Tabiiy fan darslari yoshlarimizni kelajak hayotida muhim ahamiyat kasp etadi.Yangi kelajak fanlaridan hisoblangan Tabiiy fan yoshlarimizni yanada bilimli , dunyoqarashi keng, vatanga munosib farzand, buyuk tabiatning sadoqatli egalari bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.Tabiatning ne'matlaridan o'rinli foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi .Zero Tabiatni muhofaza qilish har bir insonni eng muhim vazifasi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Mo'minov "Turfa olam" O'zbekiston -1982
2. O.Mo'minov "Tabiatshunoslik" metodika Toshkent -1979
3. V.Rafiqov. "Qiziqarli geografiya" Toshkent -2010
4. Sh.Sharipov, A.Bahromov ,M.Nabiyeva "Tabiatshunoslik" 4-sinf darslik Toshkent- 2017